

CHOLG'U IJROCHILIGIDA AQLIY FAOLIYATNI RIVOJLANTIRISHNING ILMIY ASOSLARI

Muhammadnodir Qodirov Xusanovich

Farg'ona davlat universiteti 2-bosqich magistranti

E-mail: kodirownodir63@gmail.com

Telefon raqam: +998 91 744 51 35

Annotatsiya: Mazkur maqolada musiqiy ijro jarayonida aqliy faoliyatni rivojlantirishning nazariy asoslari tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida musiqiy tafakkur, eshituv qobiliyati, ijodiy fikrlash va diqqat kabi psixik jarayonlarning shakllanishi va rivojlanish mexanizmlari yoritib beriladi.

Kalit so'zlar: musiqiy ijro, aqliy faoliyat, musiqiy tafakkur, kognitiv jarayonlar, ijodiy fikrlash, eshituv qobiliyati, diqqat, pedagogik yondashuv, intellektual rivojlanish.

Musiqiy ijrochilik — insoniyat madaniy taraqqiyotining eng yuksak va murakkab ko'rinishlaridan biri bo'lib, u o'zida san'at, ilm-fan va jismoniy mahoratni mujassam etadi. Nota matni — bu shunchaki qog'ozdagi statik belgilar to'plami. Uni jonli, hissiyotga boy va mazmunli tovush oqimiga aylantirish uchun ijrochidan nafaqat cholg'u asbobini mukammal egallash, balki yuksak darajadagi aqliy faoliyat va psixologik barqarorlik talab etiladi.

Zamonaviy musiqiy pedagogika va psixologiyaning asosiy maqsadi — “ijrochi-hunarmand” emas, balki “ijrochi-shaxs”ni tarbiyalashdir. B.M. Teplov o'zining fundamental ishlarida ta'kidlaganidek, musiqiy qobiliyatlar shaxsning musiqiy faoliyatga moslashgan butun bir psixofizik tizimidir¹. Ushbu tizimning markazida esa aqliy faoliyat — tahlil, sintez va umumlashtirish jarayonlari turadi.

Ijrochilik san'ati bevosita pedagogik jarayon bilan uzviy aloqada shakllanadi. O'quvchi yoki talabning ijro mahoratini rivojlantirishda ustozning o'rni hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lib, u nafaqat asarni o'rgatish, balki ijro uslubi, sahna madaniyati, emotsional ifoda va psixologik tayyorgarlik kabi ko'plab jihatlar bo'yicha yo'naltiruvchi vazifani bajaradi. Shu bois pedagogning kasbiy saviyasi, metodik yondashuvi va shaxsiy tajribasi o'quvchining ijodiy shakllanish jarayoniga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Bugungi musiqa ta'limi tizimida cholg'u ijrochiligini o'qitish jarayonini zamonaviylashtirish, ilg'or pedagogik texnologiyalarni qo'llash hamda o'quvchilarda mustaqil ijodiy fikrlashni rivojlantirish dolzarb masalalardan biri bo'lib qolmoqda. Yosh ijrochilarni tarbiyalashda ularning individual imkoniyatlarini to'g'ri baholash, motivatsiyasini kuchaytirish va musiqiy ko'nikmalarini bosqichma-bosqich rivojlantirish orqali yuqori ijro darajasiga erishish mumkin. Shuningdek, asarning uslubiy xususiyatlarini anglash, kompozitor g'oyasini chuqur idrok etish ham ijrochilik mahoratining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi.

Asarni mukammal ijro etish jarayoni ijrochidan nafaqat texnik tayyorgarlikni, balki musiqiy tahlil, obrazni his qilish va murakkab ijro elementlarini izchil o'zlashtirishni ham talab etadi. Shu jihatdan cholg'u ijrochiligini rivojlantirish uzluksiz, ongli va tizimli mehnat jarayoni bo'lib, u pedagog va o'quvchining birgalikdagi ijodiy faoliyatini ham nazarda tutadi.

Cholg'u ijrochiligida mahoratni shakllantirish ko'p omilli jarayon sifatida baholanadi. Eng avvalo, texnik tayyorgarlik asosiy o'rin tutadi, chunki ijro texnikasi yetarli darajada rivojlanmagan bo'lsa, badiiy mazmuni to'liq ifodalash imkoniyati cheklanadi. Shu sababli mashqlar tizimini

¹ Теплов Б. М. Психология музыкальных способностей. — М.: АПН РСФСР, 1947. — 335 с.

to'g'ri tashkil etish, barmoq harakatlari, koordinatsiya, nafas olish va boshqa ijro elementlarini mukammal o'zlashtirish zarurdir.

Bundan tashqari, musiqiy tafakkur va obrazli ifodalash ko'nikmalari ham muhim ahamiyatga ega. O'quvchi asarning faqat texnik tomonini emas, balki uning ichki mazmuni va badiiy g'oyasini ham anglab ijro etishi lozim. Bu esa tahliliy fikrlash, ijodiy yondashuv va uslubiy farqlarni tushunish qobiliyatini talab qiladi. Masalan, turli davr va uslubga mansub asarlar ijrosida farqli ifoda vositalarini qo'llash ijrochining musiqiy tafakkurini boyitadi.

Musiqiy xotira ham ijrochilik faoliyatining muhim tarkibiy qismidir. Asarni yod olishda uni bo'laklarga ajratish, murakkab qismlarni alohida ishlash hamda eslab qolishning individual usullarini qo'llash samarali natija beradi. Bu, ayniqsa, sahna ijrosida barqarorlikni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi.

Shu bilan birga, sahna madaniyati, psixologik barqarorlik va emotsional tayyorgarlik ham ijrochining umumiy mahoratini belgilaydi. O'quvchi sahnada o'zini erkin tutishi, asarni ishonch bilan ijro etishi va tinglovchiga emotsional ta'sir ko'rsata olishi kerak. Bunda muntazam konsert chiqishlari, amaliy mashg'ulotlar va ustoz nazorati muhim ahamiyat kasb etadi.

Pedagog esa bu jarayonda markaziy figura sifatida namoyon bo'ladi. U faqat texnik bilim beruvchi emas, balki o'quvchining ichki dunyosini anglay oladigan, uning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda ta'lim jarayonini tashkil etadigan murabbiydir. Shuningdek, o'qituvchi o'quvchini ruhlantirish, unda ijodiy qiziqish uyg'otish va ishonchni mustahkamlash orqali uning ijro salohiyatini rivojlantiradi.

Bugungi kunda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish ham ta'lim jarayonini samarali tashkil etishga yordam bermoqda. Raqamli dasturlar, audio-video vositalar va virtual o'qitish imkoniyatlari o'quvchilarning mustaqil ishlash ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Musiqiy asarni o'rganish jarayoni sof aqliy operatsiyalardan boshlanadi. Bu tahlil jarayoni muhim ahamiyatga ega. Tahlil jarayonida ijrochi asarni o'rganishda uni tarkibiy qismlarga — frazalarga, garmonik funksiyalarga va fakturaviy elementlarga ajratadi. G.M. Sipunov yozganidek, "Tahlilsiz ijro — bu mantiqsiz nutq kabidir"².

Sintez- bu bo'laklarga ajratilgan elementlarni yagona badiiy obrazga birlashtirish bosqichidir. Bu yerda ijrochining mantiqiy tafakkuri va badiiy fantaziyasi uyg'unlashadi.

Umumlashtirishda talaba turli asarlarni solishtirish orqali uslubiy qonuniyatlarni (masalan, Vena klassiklariga xos artikulyatsiya) anglab yetadi.

Ijro faoliyatida "predstavlenie" (tasavvur) tushunchasi markaziy o'rin tutadi. G.G. Neygauzning ta'limotiga ko'ra, qo'llar faqat quloq va miya tomonidan buyurilgan tovushni chiqarishi kerak³. Agar ijrochi tovushni chiqarishdan oldin uni miyasida "eshitmasa", natija kutilganidek bo'lmaydi. Bu jarayon kognitiv psixologiyada antitsipatsiya (oldinga o'tib ketish) deb ataladi. Professional musiqachi doimo bir necha takt oldinda fikrlaydi.

Musiqiy xotira — bu murakkab polifunksional tizimdir. L. Makkinnon musiqiy xotirani to'rtta asosiy turga ajratadi:

1. Eshitish xotirasi: Ohang va garmoniyani saqlash.
2. Ko'ruv xotirasi: Nota matnini rasm kabi eslab qolish.
3. Motor (mushak) xotirasi: Barmoq harakatlarining avtomatizmi.

² Цыпин Г. М. Психология музыкальной деятельности. — М.: Интерпракс, 1994. — 375 с.

³ Нейгауз Г. Г. Об искусстве фортепианной игры. — М.: Музыка, 1988. — 240 с.

4. Mantiqiy xotira: Asarning shakli va nazariy qurilishini anglash [4].

Talablardan kelib chiqib, shuni ta'kidlash lozimki, faqat motor xotiraga tayanadigan ijrochi sahnada hayajonlangan paytda "to'xtab qolish" xavfiga eng ko'p duch keladi. Mantiqiy xotira esa xotira uzilishida ijrochiga asarni istalgan joyidan davom ettirish uchun "tayanch nuqtalari"ni beradi.

Musiqiy ijro davomida diqqat bir nuqtaga emas, balki butun bir jarayonga yo'naltiriladi. S.I. Savshinskiy buni "polifonik diqqat" deb atagan⁴. Ijrochi bir vaqtda:

- Matnni nazorat qiladi;
- Eshitish orqali intonatsiya va tembrni tuzatadi;
- Sahnadagi akustika va auditoriya bilan aloqani his qiladi.

Sahna hayajoni— bu ijrochining eng katta psixologik to'sig'idir. V.I. Petrushin tadqiqotlariga ko'ra, bu holat organizmning ekstremal vaziyatga moslashuv reaksiyasidir⁵.

Hayajonni boshqarishning innovatsion usullari:

1. Ideomotor mashqlar: Cholg'usiz, faqat xayolan asarni ijro etish. Bu miyadagi motor markazlarini cholg'uda chalishdan ko'ra ko'proq faollashtiradi.
2. Psixotexnik tayyorgarlik: Sahnaga chiqishdan oldin o'zini muvaffaqiyatga dasturlash va nafas mashqlari orqali mushaklardagi "zajim"larni yo'qotish.
3. Musiqiy meditatsiya: Bor diqqatni faqat badiiy maqsadga qaratish orqali tashqi qo'ruvlardan uzilish.

Musiqqa pedagogikasi — bu shaxsni kashf etish san'atidir. Pedagog nafaqat "to'g'ri chalish"ni o'rgatishi, balki talabaning individual temperamentiga (sangvinik, xolerik va h.k.) mos repertuar tanlashi shart. G.M. Kogan ta'kidlaganidek, "Ustozning vazifasi — o'quvchini imkon qadar tezroq o'zidan mustaqil qilishdir"⁶.

Milliy ijrochilik maktabida mantiqiy va hissiy tafakkur uyg'unligi muhim. Masalan, M. Tojiyev yoki R. Abdullayev asarlarini ijro etishda talabadan nafaqat akademik texnika, balki o'zbek milliy musiqa tilidagi nola, qochirim va usul qonuniyatlarini aqlan anglash talab etiladi. Bu esa ijrochidan universal madaniyat va chuqur bilim talab qiluvchi aqliy jarayondir.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 26-maydagi PQ-4732-son Qarori "Musiqqa va san'at sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida".
2. Vygotskiy L.S. Psixologiya iskusstva. – Moskva: Iskusstvo, 1987. – 576 b.
3. Leontyev A.N. Deyatel'nost. Soznanie. Lichnost. – Moskva: Politizdat, 1975. – 304 b.
4. Teplov B.M. Psixologiya muzykal'nix sposobnostey. – Moskva: Pedagogika, 1947. – 336 b.
5. Qodirov A. Musiqqa ta'limida ijrochilik ko'nikmalarini shakllantirish metodikasi. – Toshkent: O'qituvchi, 2018. – 152 b.

⁴ Савшинский С. И. Работа пианиста над музыкальным произведением. — М.: Музыка, 1964. — 188 с.

⁵ Петрушин В. И. Музыкальная психология. — М.: Владос, 1997. — 384 с.

⁶ Коган Г. М. У врат мастерства. — М.: Советский композитор, 1968. — 342 с.